

ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO‘L” DRAMMATIK DOSTONI BADIY MOHIYATI

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti talabasi
Esanova Farzona Ergash qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada millatimizning asl farzandi buyuk shoir va xalqparvar adib Abdulla Oripov hayotiga nazar solamiz. Abdulla Oripovning hayoti va ijodiy yo‘li, shu bilan birga shoirning “Jannatga yo‘l” asari tahlili hamda dostonida keltirilgan badiiy obrazlar haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Maqolada “Jannatga yo‘l” dostonining o‘quvchi yoshlar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jannat, arofat, do‘zax, drama, doston, tur, lirika.

Annotation. In three articles, we will look at the life of the great poet and nationalist writer Abdulla Oripov, the true son of our nation. Information about the life and creative path of Abdulla Oripov, as well as an analysis of the poet's work “Jannatga yo‘l” and the content of some of the poet's poems about material images in the epic are provided. The work on the role and significance of the epic “Jannatga yo‘l” in the life of the reader is presented.

Keywords: Paradise, Arafat, Hell, drama, epic, tour, lyrics

Аннотация. В трех статьях мы рассмотрим жизнь великого поэта и писателя-националиста Абдуллы Орипова, истинного сына нашей нации. Информация о жизни и творческом пути Абдуллы Орипова, а также анализ произведения поэта “Jannatga yo‘l” и содержания некоторых стихотворений о образных средствах, используемых в эпической поэме. Приводятся работы о роли и значении эпической поэмы “Jannatga yo‘l” в жизни юных учеников.

Ключевые слова: Рай, Арафат, Ад, драма, эпический, тур, текст песни.

KIRISH

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumaniga qarashli Neko‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston Qahramoni. ToshDuning jurnalistika fakultetini tugatgan. O‘qishni imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Universitetdan so‘ng 1963-1967-yillarda “Yosh gvardiya” nashriyotida muharrir, 1974-1976-yillarda “Sharq yulduzi” jurnali bo‘lim mudiri, 1976-1982-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiy maslahatchisi, 1982-1983-yillarda uyushmaning Toshkent viloyati bo‘limi mas‘ul kotibi, 1983-1985-yillarda “Gulxan” jurnali bosh muharriri, 1985-1996-yillarda Yozuvchilar uyushmasi mas‘ul kotibi, 1996-2009-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi va bir

vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida ishlagan. Abdulla Oripov 2009-yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faxriy raisi lavozimini egallagan. Abdulla Oripov 1990-yilda O'zbekiston Oliy Kengashi, 1995-yilda O'zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylanadi. 2005-yilda Senat a'zosi etib ta'yinlangan. Abdulla Oripov 2016 yilning 5-noyabrida uzoq vaqt davom etgan kasallikdan so'ng AQShning Texas shtatida vafot etdi. Adib Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan¹.

ASOSIY QISM

Buyuk shoirning ijodiy faoliyati rang-barang. Adibdan bizga katta meros qolgan. Shoirning talabalik vaqtida respublika matbuotida "Qushcha" deb atalgan ilk she'ri bosilib chiqqan. Ilk she'rlar to'plami "Mitti yulduz". Adibning "Munojotni tinglab", "Birinchi muhabbatim", "Bahor", "Kuz", "Saraton", "O'zbekiston", "Otello", "Sarob", "Dengizga", "Malomat toshlari", "Oltin baliqcha", "Yuzma-yuz", "Genetika" kabi she'rlari o'sha davrda o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridan biriga aylangan. Shoirning "Mitti yulduz"dan so'ng "Ko'zlarim yo'lingda", "Onajon", "Ruhim", "O'zbekiston", "Qasida", "Xotirot", "Yurtim shamoli", "Hayrat", "Najot qal'asi", "Yillar armoni", "Ishonch ko'prigi", "Munojot", "Haj daftari", "Saylanma" kabi bir qator she'riy to'plamlari bosmadan chiqdi. Abdulla Oripov o'zbek dostonchiligida ham o'zining katta hissasini qo'shgan ijodkordir. Xususan, adibning "Jannatga yo'l", "Tabib va o'lim", "Ranjkom", "Sohibqiron" kabi dostonlari o'quvchilar qalbidan joy olishga ulgurgan. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasining muallifi hisoblanadi. Ulug' shoir o'z vatanini chin qalbidan sevdi, uning taraqqiyoti uchun yurt farzandi sifatida buyuk ishlarni amalga oshirdi. Abdulla Oripov O'zbekiston oldidagi xizmatlari cheksizdir.

Abdulla Oripov mehnat faoliyati davomida Kaliforniyada joylashgan Fan, ta'lim, sanoat va san'at xalqaro akademiyasining chet ellik a'zosi hisoblanadi. Yaponiyada Soka universiteti professori. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" bosh tahrir hay'ati a'zosi, Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureate bo'lgan. Abdulla Oripov g'azal janrida ham ijod qilgan. Jumladan, 2024-yil nashr etilgan "Buyuk soddalik" nomli to'plamida 34 ta g'azal nashr etilgan. Abdulla Oripov mohir tarjimon hamdir. Adib o'zi haqida "Ilohiy komediya"ning "Do'zax" qismini tarjima qilishga qo'l urishimda Sharof Rashidov sababchi bo'lganlar" deb ta'kidlagan. Adib Dantening "Ilohiy komediya" asarini, Nekrasov, Leysa Ukrainka, T.Shevchenko, K.Kuliyev kabi dunyoga mashhur yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan². 2015-yil Oripov

¹ Begimqulov D. Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2021. – 576 b.

² Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 1999.

Italiya yulduzi ordeni bilan taqdirlangan. Ordenni Abdulla Oripovga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning maxsus taklifiga binoan topshirilgan. Abdulla Oripov “Ilohiy komediya” asarini tarjima qilishda o‘zbek tilining imkoniyatlaridan keng foylanadi. Tilimizning eng boy til ekanligini va dunyo tillaridan qolishmasligini isbotlab beradi. Abdulla Oripov xalq va yurt oldidagi buyuk xizmatlari e’tirof etilib adib xotirasiga bag‘ishlangan kitob “Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” 2020-yil 2-dekabrdagi qaroriga muvofiq nashr etilgan³. Abdulla Oripov ijodi bo‘yicha Nodira Afoqova 1995-yilda shoir ijodi bo‘yicha dissertatsiya ishini yoqladi va o‘sha yili uning bir yo‘la ikki kitobi- “Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar” va “She’r, hadis, hikmat” asarlari nashr etildi. So‘ngra, 2006-yili olimaning turmush o‘rtog‘i Ilhom G‘aniyev bilan hamkorlikdagi tadqiqotlari mahsuli “Ozod ruh falsafasi” kitobi dunyo yuzini ko‘rdi⁴. Abdulla Oripov fikri teran va falsafiy. Adib asarlarida inson, uning qalbi, fikrlashi, dunyoqarashi, vatanparvarligi mujassamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shoir “Jannatga yo‘l” asarini dramatik fojea deb atabdi. Asar mazmunan shunday. Biroq u ham satirik fojeadir. Ma’lumki, satirada yozuvchi har xil shartli pryomlardan foydalanishi mumkin. Shu asosda nuqson va kamchiliklarni, hayotda uchrab turadigan illatlarni qabartirib, ayrim joylarida oshirib tasvirlashi, zarur paytlarda noreal situatsiyalar ham yaratishi mumkin. Gap bu yerda noreal situatsiyalardan real xulosalar chiqarib hayotda uchrab turadigan ayrim kamchiliklarni sog‘lom pozitsiyadan turib fosh qila bilishda, hayotimiz ulug‘ bir dunyo ekanligini unga tushib qolgan ba’zi bir xas-cho‘plar, shox-shabbalar, shiddatli oqim natijasida paydo bo‘lgan engil ko‘piklar uning oqimiga zarar yetkaza olmaydiganini anglagan holda ish tutishdir” deya fikr bildiradi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi muxbir a’zosi Matyoqub Qo‘shjonov⁵.

Asarda keltirilgan obrazlar:

Yigit, Ota, Ona, Tarozibon, Yugurdak, Chol, Hur qiz, Farishta, Do‘st, O‘spirin, Qariya, O‘zga odam, Yugurdak farishta, Kimsa, Sado⁶.

Darhaqiqat adibning bu asari insonlarga o‘rnak bo‘ladigan asar desak adashmaymiz. Asarda shoirning hayoti davomida qilgan amallari, ota-onasiga bo‘lgan hurmat-e’tibori va do‘stlari, atrofidagi kimsalarning bu dunyoda qanday inson bo‘lganliklari batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birga jannatda qanday amali bor

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” Farmoni. – Toshkent, 2020.

⁴ G‘aniyev I., Afoqova N. Ozod ruh falsafasi. – Toshkent: Fan, 2006.

⁵ Қўшжонов М., Сувор М. Абдулла Орипов. – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2000.

⁶ Орипов А. Жаннатга йўл. – Тошкент: Ўзбекистон КИП марказий комитети нашриёти, 1980.

insonlar, arofatda qanday insonlar qoladi, do'zaxda qanday gunoh qilgan insonlar bo'lishi haqida shoir o'z g'oyalarini hayotiy tasvirlaydi. Ikki paysa savob etmay qolgan shoir savol-javob vaqtida do'zaxga kirishi muqarrar edi. Undan oldin esa unga bu dunyoda qilgan yaxshiliklari uchun savob so'rab olish imkoniyati beriladi. Shoirga ota-onang jannatda ulardan so'ra deb buyuradi, ammo shoir ulardan savob olish uchun emas balki ularni bir bora ko'rib diydorlashish uchun boradi. Abdulla Oripov dostonida yigitning gunohi sifatida yomon ishlarga guvoh bo'lib e'tibor bermay o'tganidir deb tasvirlaydi. Asarda savob va gunoh amallar sarhisob qilinadi shunda eng og'ir gunoh ota-onasini norozi qilgan, otasiga qo'l ko'targan, ularni hurmat qilmagan insonlarni do'zaxiy deb ta'riflaydi. Aslida ham shunday. Xalqimiz orasida eng birinchi yaxshilikni ota-onasiga qilishi lozimligi haqida hadislar ko'p uchraydi. Yigit do'zaxni, arofatni va jannatni sayr qilar ekan bu dunyoda qilgan barcha amallari, insonlarning qilgan ishlari ko'z oldidan o'tadi. Aybdor insonlar, boshqa insonlarni haqiga hiyonat qilgan kimsalar, yolg'onchilar va ulardan jabr ko'rganlar bir-birlari bilan yuzlashadilar. Ularni yuzma yuz qilib badal to'latadi Shoir bu asari orqali foni dunyoda yashayotgan insonlarga ko'zgu tutadi, ularni ogohlikka chaqiradi. Asarni o'qiyotgan o'quvchiga bu dunyoda qilayotgan yaxshi va yomon amallarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Asar so'ngida esa do'zax darvozasi yonida shoir do'sti bilan ko'rishib qoladi. Uning do'stiga ham savob etmay qolganidan jannatga kirolmayotgan, hayotlik davrida unga azob bergan shaxslar bilan hisob-kitob qilayotgan bo'ladi. Do'stiga yigit o'z savoblaridan olishini, uni jannatga kirishini xohlashini aytadi ammo do'sti buni rad etadi. Do'sti ham u hayotlik vaqtida qilgan yaxshiliklari uchun savobidan berishni xohlaydi. Lekin shoir yigit ham buni rad etadi. Shunda yuqoridan ikkalangiz ham jannatni bo'ldingiz degan sado keladi. Va ikkalasi ham jannatga kiradi. Bu asar shunchaki doston bo'libgina qolmay, insonlar uchun tarbiya maktabidir. Odamlarni mehr-shafqatga, muruvvat va sahovatga, axloqqa chorlaydi. Bu dunyoda ham u dunyosida ham faqat qilgan yaxshiligi insonga yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Doston yakunida adib:

Bir rivoyat bamonay, doston so'yladim
Turli-tuman taqdirlarni aylab mujassam
Odamlarga ibrat bo'lsin deya o'yladim.

deya satrlar bilan yakunlaydi. Bu asar har bir insonni o'zi ustidan taftish qilishga chorlaydi. Abdulla Oripovning barcha asarlari chuqur ma'no, estetik did va milliy vatanparvarlik ruhi bilan uyg'unlashgan.

XULOSA

Abdulla Oripov xotirasiga,

Yashil bahor olib kelgandi uni,
Yoz daryo bo'yida suvga zor etdi,
Qahraton yonida yurdi har kuni,

Nihoyat suygani – kuz bilan ketdi.

Xurshid Davron. 05.11.2016.

Abdulla Oripov adabiyot ixlosmandlarining qalbida chuqur iz qoldirgan adib. Uning qoldirgan asarlari o'lmas va barhayotdir. Har bir adabiyot o'quvchisi adibning asarlarini o'qimay qo'ymaydi. Uning asarlari hayotiyligi, davr bilan hamnafasligi va dolzarbligi bilan boshqa asarlardan alohida ajalib turadi. Asarlarida adolat va milliy iftixor tuyg'ulari ilgari suriladi. Insonni har nafasida mustaqillik shukuhiga shukronalik hissi bilan yashashga targ'ib qiladi. Shoir o'zi haqida "Mening inson va ijodkor sifatida baxtim – O'zbekistonimning Mustaqilligini ko'rdim va nebaxtkim ozod vatanimga baholi qudrat xizmat qilib yuribman"⁷ deya takidlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida" Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Begimqulov D. Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2021. – 576 b.
3. Орипов А. Жаннатга йўл. – Тошкент: Ўзбекистон КП марказий комитети нашриёти, 1980.
4. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: "Адабиёт ва санъат" нашриёти, 1984.
5. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти, 1999.
6. Қўшжонов М., Сувон М. Абдулла Орипов. – Тошкент: "Маънавият" нашриёти, 2000.
7. Oripov A. O'z haqimda bir so'z. – Toshkent: X.Davron kutubxonasi, 2024.
8. G'oyibov M. O'zbek dostonchiligida falsafiy motivlar. – Toshkent: Fan, 2008.
9. Қосимов Ш. Абдулла Орипов поетикаси. – Тошкент: "Ёзувчи" нашриёти, 2002.
10. G'aniyev I., Afoqova N. Ozod ruh falsafasi. – Toshkent: Fan, 2006.
11. <https://oyina.uz/>

⁷ Oripov A. O'z haqimda bir so'z. – Toshkent: X.Davron kutubxonasi, 2024.